


2024

JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

WWW.BESTJOURNALUP.COM



O'ZBEKISTONDA GENDER MASALALARI VA SO'NGI YILLARDA XOTIN-QIZLARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR

Nuraliyeva Sora Bahodir qizi

O'zMU Jizzax filiali 3-bosqich talabasi.
nuraliyevasora@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarda xotin-qizlarning bevosita ishtiroki zarurligi va katta ahamiyatga molik ekanligi e'tirof etilgan. Jamiyatning turli sohalarida: ma'naviy, ijtimoiy-maishiy muammolarni hal qilishda xotin-qizlarning faolligini oshirish, davlat tomonidan, ularning faol bo'lishlari uchun shart-sharoit hamda imkoniyatlarni yanada takomillashtirish masalalari yoritilgan. Yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda balki siyosiy jarayonlarda ham xotin-qizlar faolligi masalasi bilan bog'liq dolzarb muammolar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Gender tenglik, gender g'oyasi, jins, xotin-qizlar, BMT, streotip, determinant;

Аннотация: В данной статье признается необходимость и большое значение непосредственного участия женщин в реализуемых демократических реформах. В различных сферах жизни общества освещены вопросы повышения активности женщин в решении духовных, социальных и бытовых проблем, дальнейшего улучшения со стороны государства условий и возможностей для их активности. Подняты актуальные проблемы, связанные с вопросом активности женщин в социально-экономических процессах, а также в политических процессах модернизирующегося Узбекистана.

Ключевые слова: Гендерное равенство, гендерная идея, пол, женщины, ООН, стереотип, детерминант;

Abstract: This article recognizes the necessity and great importance of direct participation of women in the democratic reforms being implemented. In various spheres of society, issues of increasing the activity of women in solving spiritual, social and household problems, and further improving the conditions and opportunities for their activeness by the state have been highlighted. Actual problems related to the issue of women's activity in the socio-economic processes, but also in the political processes of the modernizing Uzbekistan were brought up.

Key words: Gender equality, gender idea, sex, women, UN, stereotype, determinant;

Kirish. Gender tenglik g'oyasi XX asrning oxirgi o'n yilliklarida to'liq shakllandi, u turli davr va ijtimoiy-madaniy sharoitda har xil ma'naviy-axloqiy talablar asosida o'zgarib turgan ijtimoiy-madaniy jarayon ekanligi anglanildi. Gender tengligi ijtimoiy tenglikni ham anglatadi. Gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim, ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy holat. "Gender" so'zi inglizcha "gender", lotincha "genus" so'zlaridan olingan bo'lib, "zot, jins, kelib chiqish" ma'nosini anglatadi.

Asosiy qism.

Gender madaniyatini shakllantirishda eng muhim pedagogik xulosalardan biri, yoshlarni gender tenglik ruhida tarbiyalash ishlarida oila, maktab, tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari (radio, televideniye, internet)ning roli ahamiyatlidir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning inson xuquqlari, erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan siyosati

ana shu ijtimoiy farqlarni yumshatishga, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalarida ularga teng imkoniyatlar yaratishga gender tenglik g'oyasini shakllantirishga qaratilgandir. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarida ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi muhim tamoyil sifatida belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda yoshlarni gender tenglik, tolerantlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash hozirgi davrning dolzarb pedagogik muammosidir. U davlat ahamiyatiga molik ma'naviy-axloqiy, xuquqiy-siyosiy tarbiya asosidir.

Yoshlarni gender tengligi g'oyasi asosida tarbiyalash, uning mazmun-mohiyati, vazifalarini ilmiy-nazariy hamda pedagogik jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Gender tenglik tarbiya tizimi nihoyatda keng qamrovlidir. Maqsadli disputlar, davra suxbatlari, savol-javob kechalari, tematik ma'ruzalar, seminar-treninglar, nazariy-amaliy konferensiyalar ham ushbu yo'nalish rivojiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarni gender tenglik ruhida tarbiyalashning eng muhim ahamiyati ularni, birinchi galda, qiz bolalarni o'zligini anglashiga, ijtimoiy muhitni, ijtimoiy ruhiyatni, ichki uyushtiruvchi, xarakterga keltiruvchi va yetaklovchi, inson qadr-qimmatining jinsiga qarab belgilanmasligini isbotlovchi kuchga aylanishiga xizmat qilishidir. Bu holda gender tenglik g'oyasi (o'g'il va qiz bolalarga teng huquq hamda teng imkoniyatlar yaratish) shaxsning ham, jamiyatning ham ma'naviy yuksalishiga ta'sir qiladi, insonlarini anglashga, ijtimoiy tafakkurning o'zgarishiga olib keladi. Gender tenglik goyasi jamiyatda yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishga, mustaqil fikrlashga, ma'naviy-ruhiy jihatdan tenglik tamoyillarini o'ziga singdirishga undovchi va uni harakatga keltiruvchi bunyodkor g'oyadir. Jamiyat hayotida chuqur o'rin olgan gender notenglik (jinsiga qarab ustunlik belgilash; bu yerda o'g'il bolalar maqomining, "men"ining qiz bolalar maqomidan va "men"idan yuqorida turishi) shaxs taraqqiyotiga, o'sishiga g'ov bo'lmoqda. Qiz bolalarning inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida o'z kuchlarini sinashga, salohiyat va qobiliyatlariga tayanib qaysidir bir murakkab sohani egallashga intilishlarini cheklaydi, ba'zi hollarda, umuman, imkon bermaydi. Gender tenglikni ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya yoshlar xulq-atvorining, dunyoqarashining ijtimoiy foydali, adolatli, insonparvar, demokratik sifatlarini shakllantirish ishiga yordam berishi shubhasiz. Chunki gender tenglik g'oyalari bilan sug'orilgan ta'lim-tarbiya yoshlarda gender bilimlarni hosil qilishi, ularning dunyoqarashiga va e'tiqodiga aylanib borishi, ruhiyatiga ta'sir etishi mumkin. Bu ayniqsa, qiz bolalarning mas'uliyat va qat'iyatlik, qiziqish bilan o'zlari istagan sohalarini o'rganishlariga intilishlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o'rganib, ular ongida jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida faoliyat ko'rsata olishlariga ishonch hosil qilish mumkin. Bu esa ularda tegishli ma'naviy-axloqiy sifatlar bilan bir qatorda, vatanga muhabbat, uning yuksakligini ta'minlashga o'z hissasini qo'shishga ishonch tuyg'usini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida gender tarbiyaning imkoniyatlaridan izchil foydalanish yoshlarni barkamol shaxs sifatida kamol toptirishda katta rol o'ynaydi. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan va ushbu sohadagi izlanishlarimiz natijalaridan quyidagilarni ifodalash mumkin:

- maktabda yoshlarni gender tenglik ruhida tarbiyalashning pedagogik tizimi, uni ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirish mazmuni nazariy jihatdan ishlab chiqilishi lozim;
- ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarda gender tenglik madaniyatini shakllantirishning

pedagogik xususiyatlari o'rganilishi, tahlil qilinishi va yaratilishi lozim;
- ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarda gender madaniyatini shakllantirish uchun izchillik, ilmiylik, tushunarlilik, ishonarlilik, nazariya va amaliyot birligi tamoyillariga axamiyat berilishi kerak;

- gender madaniyatli barkamol shaxsni shakllantirishga doir darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, axborot-ko'rgazmali materiallar yaratish va uni ta'lim jarayoniga kiritish lozim;

- barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga gender nazariyasini singdirish shakl, usul va vositalarini yaratish;

- yoshlarda ta'lim-tarbiya jarayonida gender tenglik g'oyalari uchun ishoniqlikni kuchaytiruvchi, shakllantiruvchi innovatsion texnologiyalarning jahon tajribasi isbotlagan metod va usullarini o'rganish va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda amaliyotga joriy etish lozim;

- ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarda gender madaniyatning shakllanganlik monitoringini olib borish va ular natijalari asosida mazkur yo'nalishni rivojlantirish;

- pedagogika yo'nalishidagi ta'lim tizimida gender nazariyasi va amaliyotidan maxsus kurslar joriy qilish;

- ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida gender nazariyasi va amaliyotining gender madaniyatli yetuk inson tarbiyalashdagi ahamiyatini hisobga olib respublika va viloyat malaka oshirish institutlarida maxsus kurslar o'tish maqsadga muvofiqdir va shu kabilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida so'zlagan nutqida: "Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat'iy davom ettiramiz", – deb ta'kidladi.

Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil sentabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi. Shu bilan birga,

O'zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida "Gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"ga oid to'qqizta vazifani ishlab chiqdi.

Beshinchi maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini hamda yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o'z ichiga oladi.

So'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha ishlar bir necha yo'nalishlarda olib borilmoqda:

• Ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;

• Ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;

• Aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish;

• Huquqni qo‘llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta‘minlash uchun mas‘ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me‘yorlar asosida o‘qitish.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”, deb belgilangan. Demak, gender tengligining ham xalqaro, huquqiy ham konstitutsiyaviy huquqiy asosi kafolatlangan. Gender tengligi ijtimoiy tenglikni ham anglatadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda gender tenglikni ta‘minlashning qonunchilik va institutsional negizini mustahkamlash yo‘lida muhim choralar ko‘rildi. Gender tengligi masalalari milliy qonunchiligimizda ham o‘z aksini topgan, ya‘ni 2019-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonuni qabul qilindi. Hujjat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilindi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma‘qullandi. Ya‘ni Gender tengligini joriy qilish nuqtayi nazaridan ta‘limdagi ijobiy siljishlarni alohida 2017-yildan boshlab aksariyat oliy ta‘lim muassasalarida turli mutaxassisliklar bo‘yicha sirtqi bo‘limlar faoliyati tiklandi. Ta‘limning ushbu shakli yosh ayollarga bolalarni parvarish qilish va boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarish bilan birga oliy ma‘lumot olish imkoniyatini ham beradi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatida: “Meni kishilarimizning ongida paydo bo‘lgan stereotip ko‘p o‘ylantiradi. Odatda biz ayolni, avvalambor, ona, oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”, – deb ta’kidlagan.

Gender tenglik bo‘yicha institutsional choralarga kelsak, ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta‘minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo‘yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg‘unlashtirish bilan shug‘ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil qilingan. Bundan tashqari, mehnatga oid huquqlarning kafolatlari va qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, uydagi zo‘ravonlik qurbonlariga yordam berish maqsadida zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi va Xotin-qizlar tadbirkorligi markazi kabi yangi tuzilmalar tashkil topdi. Bu, o‘z navbatida, Sharqona gender tengligining o‘ziga xos huquqiy tomoni hisoblanadi. Mazkur yangi tashkil etilgan barcha institutsional mexanizmlar O‘zbekiston Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi bilan birgalikda BMT Konvensiyasiga muvofig ayollar huquqlari, gender tengligi va xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berishning yagona yaxlit mexanizmiga aylanishi masalaning muhim tomonidir.

Ta’kidlash joiz, qabul qilingan normativ-me‘yoriy hujjatlar va amaliy choratadbirlar O‘zbekistonning gender siyosati sohasidagi muhim qadamidir va u qonunchilik hamda amaliyotning xalqaro me‘yor va standartlariga to‘liq mos keladi, shu bilan birga, ularning bir qismi BMTning inson huquqlari bo‘yicha idoralari tavsiyalariga asoslangan. Binobarin, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlarning bajarilishini

ta'minlash uchun "Yo'l xaritalari" va gender tengligi bo'yicha milliy strategiya ham qabul qilingan.

Biologik jins va ijtimoiy jins differensiyasi 1935-yilda Polineziya orollarida o'smirlarning ijtimoiylashuvini tadqiq etgan amerikalik antropolog Margaret Mid tomonidan tahlil qilingan. Gender tushunchasi shaxs ijtimoiylashuvi bilan uzviy bog'liq. Insonlar tug'ilishi 13 bilan ijtimoiylashadi, o'zi yashayotgan jamiyatning axloq, fe'l-atvor, xulq me'yorlari, ijtimoiy determinant (lot. determinans – aniqlovchi)larga muvofiq rivojlanadi, voyaga yetadi va o'zini tutishni o'rganadi. Insonlarga oila, maktab, professional muhit, ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari va madaniy normalar katta ta'sir ko'rsatadi. Shaxs umri davomida jinsga bog'liq ijtimoiy konstruksiyalar ta'sirida rivojlanadi. Masalan, o'g'il bolalar ongiga o'zlarining his-tuyg'ularini sezdirmaslik, jismoniy kuchni namoyon etish, harbiy xizmatga tayyorgarlik ko'rish singdiriladi. Uy mehnati esa azaldan ayollarning zimmasidagi vazifa deb tushuntiriladi. Aksariyat barcha rivojlangan mamlakatlarda barqaror gender taqsimotiga ko'ra erkaklar mehnat bozorida, ayollar esa uy mehnati bilan band.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, rivojlangan davlatlarda ayolning huquq va erkinliklari muhim omil sifatida e'tirof e'tiladi. Bunga sabab oddiy ya'ni ayolning qadr-qimmatini uning jamiyatdagi o'rnini bilan belgilanadi. Ayollar qanchalik ilm-fan sohasida, yoki ijtimoiy -siyosiy sohalarda faolligi oshgansari jamiyat ham yuksala boshlaydi. Ayollarning intellektual salohiyati yuksalishi, jamiyatda komil insonlarning kamol topishi uchun zamin yaratadi. Jamiyatda erkak va ayolning teng huquqli ekanligi, oilaning mustahkamligini huquqiy jihatdan mustahkamlsa, ayollarning yuksak ma'naviyati esa oilani axloqiy jihatdan mustahkamlaydi. Chunki davlat tomonidan ayollarga berilgan har qanday e'tibor bu kelajak sari tashlangan yuksak qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekistonda xotin-qizlar, qonun va jamiyat muammolari. Toshkent, 1999;
2. Ubaydullayeva.R.A. Mustaqil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. T.: Fan, 2006;
3. O'zbekistonda Xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning tashkiliy- huquqiy asoslarini takomillashtirish. Toshkent 2008 y;
4. Bern S. Gender psixologiyasi. Sankt-Peterburg: Prime-Evroznak, 2002.
5. Bojovich L. I. Shaxs va uning bolalik davrida shakllanishi. Moskva: Ta'lim, 2000